



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 474 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospiatal pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammat qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назокат Нормаматовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
Nozimabonu Tojiboyeva	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
O'ktamova Shohida Odilbek qizi	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
N. S. Mirbabayeva	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
Kamalov Rustam Azizovich	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
Shamsiyeva Sevara Yusupovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
Toshtemirova Sarvinoz Obidovna	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
G'ofurova Umida O'tkirbek qizi	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
Xalikova Xurshida Abdullayevna	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf	272
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloeva Dilnura Samandarovna	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
Xudoyberdiyeva G. Sh.	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
Аманова А. А., Саттарова М.	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
Каримова Наргиза Абдугафуровна	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
Toxirov Feruz Jamoliddinovich	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi	293
<i>Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari	300
<i>Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</i>	
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish	304
<i>Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	309
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Eshonqulova Uralbuvis Fayzullayevna</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish	312
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Метод параллельного переноса при делении угла с недоступной вершиной	315
<i>Эсонов Мунавваржон Мукимжонович</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida geometrik masalalarni yechish	318
<i>Sobirova Dinora Umidjon qizi</i>	
O'zbekistonda raqamli jamiyat sharoitida internetdan foydalanish savodxonligini oshirish muammolari va yechimlari	323
<i>Boboqulova Dildora Xolmamat qizi</i>	
Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatida jadid ayollar ta'limiy qarashlarining namoyon bo'lishi	326
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Formation of Environmental Protection and "Green" Economy Concepts among School-Age Youth	329
<i>Kholmominova Oygul Jumayevna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarining samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar va ularning ahamiyati	333
<i>Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi</i>	
Bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish	338
<i>Raximova Muniraxon Iloxomovna</i>	
XX asrning boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati asoschilarining ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi	342
<i>Safarova Gulzoda Ismoilovna</i>	
O'smirlarda agressiv holatlar va deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari	346
<i>Shaymardanova Nargiza Maxmanaxarovna</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida sportchilarning musobaqaoldi psixologik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	349
<i>Yigitaliyev Abubakir Farxodjon o'g'li</i>	
Shaxs rivojlanishida motivlarning ahamiyati: psixologik tahlil	354
<i>Sh. Mirabdullayeva</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	359
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Bo'linishga doir olimpiada masalalarini yechish metodikasi va ularning ilmiy-amaliy tahlili	365
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikni vujudga kelish omillari	369
<i>Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi</i>	
Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	374
<i>Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyeich</i>	
Bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati	379
<i>Abdusalomov Doniyor Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	383
<i>Ali Tursaotov</i>	
Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning sanogen refleksiyani rivojlantirishga doir pedagogik imkoniyatlari	388
<i>Ismailov Murodulla Kaxramonovich</i>	

Bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish	395
<i>Madjitova Sitara Sobit kizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	399
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish omillari	402
<i>Ummatov Baxtiyor</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	407
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboyev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Ta'lim tizimida gender tengligi.....	410
<i>Nazarova Malohat Axmedovna, Sayfiddinova Barno, Axmedova Nasiba</i>	
Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning mazmun-mohiyati.....	414
<i>Odilova Mahfuza Ochilovna</i>	
Koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ota-ona va surdopedagog hamkorligini rivojlantirish texnologiyasi.....	418
<i>Rahimova Nargiza Alisherovna</i>	
O'zbek tili darslarida milliy kontentga asoslangan matnlarni tanlash tamoyillari	421
<i>Saparbayeva Indira Shadibekovna</i>	
Autizm sindromi - o'rganilish tarixi va zamonaviy metodikalar tahlili	424
<i>Jo'rayeva Sayyora Axmadjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini interaktiv metodlar asosida takomillashtirish	428
<i>Sharafutdinova Durdona Akmelevna, Niyazova Umida Shomansurovna</i>	
Tabiat bilan tanishtirishda turli metodlarni qo'llash va tabiat bilan tanishtirishning pedagogik ahamiyati	433
<i>Xalmatov Misiddin Muxammadovich</i>	
Kommunikativ qobiliyat tushunchasining psixologik mazmuni	437
<i>Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna</i>	
Biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	443
<i>Moxigul Muydin qizi Burxanova</i>	
Культура речи медицинского работника	447
<i>Рузметова Наргиза Ахмедовна</i>	
Образ города как пространства памяти и идентичности в прозе дины рубиной.....	454
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Назаров Бехруз, Фарходов Диёрбек, Бурибайев Нодир</i>	
Rang konseptlarining lingvomadaniy tabiati va pedagogik ahamiyati: nazariy asoslar	457
<i>Arabova Gulnur Yuzboy qizi</i>	
Rang konseptlarini o'qitishga oid xalqaro tadqiqotlar tahlili: ilmiy bo'shliqlar va metodologik istiqbollor	461
<i>Arabova Gulnur Yuzboy qizi</i>	
Типология трудностей формирования навыков иноязычного говорения в начальной школе.....	466
<i>Огай Мукаддасхон Халваевна</i>	

AUTIZM SINDROMI - O'RGANILISH TARIXI VA ZAMONAVIY METODIKALAR TAHLILI

Jo'rayeva Sayyora Axmadjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika yo'nalishi
1-bosqich magistr talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada autizm sindromining tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning ilmiy jihatdan o'rganilishi, zamonaviy diagnostik va korreksion yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, autizm tashxisi bo'lgan bolalarda nutqiy va ijtimoiy muloqotni rivojlantirishda qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalar, ABA terapiya, TEACCH tizimi, Son-Rise, predmetoterapiya (sensor integratsiya va rag'bat), sensor integratsiya hamda logopedik yondashuvlarning samaradorligi yoritilgan. Maqolada xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili asosida autizm spektr buzilishining bugungi kundagi dolzarb muammolari va istiqbollari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: autizm, autizm spektr buzilishi, ABA terapiya, nutqiy muloqot, korreksion pedagogika, logopediya, TEACCH, Son-Rise, predmetoterapiya (sensor integratsiya va rag'bat), sensor integratsiya, inklyuziv ta'lim.

Abstract: This scientific article analyzes the historical development stages of autism syndrome, its scientific study, modern diagnostic and correctional approaches. It also covers the effectiveness of innovative pedagogical technologies used in the development of speech and social communication in children with autism, ABA therapy, TEACCH system, Son-Rise, object therapy (sensory integration and engagement), sensory integration and speech therapy approaches. The article shows the current problems and prospects of autism spectrum disorders based on the analysis of foreign and domestic scientific literature.

Key words: autism, autism spectrum disorder, ABA therapy, speech communication, correctional pedagogy, speech therapy, TEACCH, Son-Rise, object therapy (sensory integration and engagement), sensory integration, inclusive education.

Аннотация: В данной научной статье анализируются исторические этапы развития аутистического синдрома, его научное изучение, современные диагностические и коррекционные подходы. Также рассматривается эффективность инновационных педагогических технологий, используемых в развитии речи и социальной коммуникации у детей с аутизмом, АВА-терапия, система TEACCH, Son-Rise, объектная терапия (сенсорная интеграция и вовлечение), сенсорная интеграция и логопедические подходы. В статье на основе анализа зарубежной и отечественной научной литературы представлены текущие проблемы и перспективы расстройств аутистического спектра.

Ключевые слова: аутизм, расстройство аутистического спектра, АВА-терапия, речевая коммуникация, коррекционная педагогика, логопедия, TEACCH, Son-Rise, объектная терапия (сенсорная интеграция и вовлечение), сенсорная интеграция, инклюзивное образование.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida autizm spektr buzilishiga ega bo'lgan bolalar sonining ortib borayotgani mazkur muammoning nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-pedagogik jihatdan ham dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Autizm bolaning ijtimoiy munosabatlari, nutqiy rivojlanishi, hissiy-emotsional holati hamda xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab neyropsixologik buzilish hisoblanadi. Ayniqsa, autizmli bolalarda nutqiy muloqotning yetarli shakllanmasligi ularning jamiyatga moslashuvi va ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvini qiyinlashtiradi.

Bugungi kunda autizm muammosi butun dunyo olimlari tomonidan keng o'rganilmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar autizmni faqat kasallik sifatida emas, balki rivojlanishning o'ziga xos shakli sifatida baholash zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bois korreksion-pedagogik ishlarni tizimli tashkil etish, innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish va individual yondashuvni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada autizm sindromining tarixiy rivojlanishi, uning ilmiy talqinlari hamda zamonaviy pedagogik va korreksion yondashuvlar ilmiy asosda tahlil qilinadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autizm sindromi ilk bor XX asr boshlarida ilmiy jihatdan o'rganila boshlagan. 1911-yilda shveytsariyalik psixiatr Eugen Bleuler "autizm" atamasini birinchi marta qo'llagan bo'lib, u ushbu tushunchani insonning tashqi muhitdan ajralib, ichki dunyosiga berilib ketishi holatini ifodalash uchun qo'llagan.

1943-yilda amerikalik bolalar psixiatri Leo Kanner ilk marotaba bolalar autizmini alohida sindrom sifatida tavsiflagan. Olim 11 nafar bolada kuzatuv olib bordi va bu bolalarda ijtimoiy yakkalanish, stereotip harakatlar va nutqiy muammolarni ilmiy asosda bayon qilgan. Kanner autizmni "erta bolalik autizmi" deb nomlagan. 1944-yilda avstriyalik olim Hans Asperger yuqori intellektual imkoniyatga ega bo'lgan, biroq ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalarni tadqiq etgan. Keyinchalik bu holat "Asperger sindromi" nomi bilan ilm-fanga kirib kelgan.

Autizm sindromi haqidagi bilimlarning rivojlanish bosqichlari. Dastlab autizm tushunchasi psixiatriya doirasida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u pedagogika, logopediya, nevrologiya va psixologiya fanlarining ham muhim tadqiqot obyektiga aylandi. Ilk tadqiqotlarda autizm - "noto'g'ri tarbiya natijasi" sifatida talqin qilingan. Ayrim olimlar onaning bolaga nisbatan sovuqqon munosabati autizmga sabab bo'ladi, degan noto'g'ri qarashlarni ilgari surganlar. Ammo keyingi ilmiy izlanishlar ushbu fikrlarni rad etdi.

Ilmiy rivojlanish davri. 1980-yillardan boshlab autizm mustaqil rivojlanish buzilishi sifatida xalqaro tasniflarga kiritildi. DSM va ICD klassifikatsiyalarida autizm spektr buzilishi alohida diagnostik kategoriya sifatida e'tirof etildi.

XX asrning 60–70-yillariga kelib autizmni o'rganishda neyropsixologik yondashuv kuchaydi. Olimlar autizmning kelib chiqishida genetik va nevrologik omillar muhim ekanligini ta'kidlay boshladilar. Zamonaviy tadqiqotlarda esa autizmning irsiy omillar bilan bog'liqligi yuqori ekanligi qayd etilmoqda.

XXI asrga kelib autizmni erta aniqlash, individual ta'lim dasturlari va inklyuziv yondashuvlar rivojlana boshladi. Zamonaviy texnologiyalar orqali autizmlil bolalarning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaydi. Mamlakatimiz olimlaridan R. Shomaxmudova, P. Po'latova, L. Mo'minova va boshqa defektolog olimlar maxsus pedagogika hamda logopediya yo'nalishida autizmlil bolalar bilan ishlash metodikasini ishlab chiqishga katta hissa qo'shganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda autizmlil bolalar bilan ishlashda bir necha eng samarali metodlar mavjud. Quyida ushbu metodlar keltirilgan:

TEACCH (Teaching Children with Autism to Mind-Read) – autistik belgilari bo'lgan va rivojlanishdan orqada qoluvchi bolalarni qo'llab-quvvatlashning asoslari. TEACCH 1970-yillarda doktor Eric Schopler tomonidan ishlab chiqilgan edi. Dastlab mazkur metodika mutaxassislar va rivojlanishida shunday xususiyatlari mavjud bo'lgan bolalarning ota-onalari uchun mashg'ulotlar va tavsiyalar to'plamidan iborat edi. Ushbu metodika AQShning Shimoliy Karolina universitetida faol rivojlanib, bugungi kunda undan Belgiya, Daniya va AQShning ayrim shtatlarida autistik belgilari mavjud bo'lgan bolalarni o'qitishning davlat dasturi sifatida keng foydalanilmoqda. Bu metodika o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligini, korreksion pedagogning oila hamda bolani muntazam nazorat qilib borayotgan shifokor bilan hamkorligini talab qiladi.

TEACCH metodikasi doirasida maxsus tadqiqot uslublari va bolalar rivojlanishining individual dasturlarini yaratishning maxsus tamoyillari ishlab chiqildi.

- psixologik rivojlanishga mo'ljallangan tadqiqotlar bola rivojlanishining turli funksional sohalaridagi kamchiliklari va qobiliyatlarini qamrab oladi.
- mazkur tadqiqot bola rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqish uchun asos sifatida xizmat qilib, bolani korreksiyalashning qisqa hamda uzoq muddatli maqsadlariga erishish imkoniyatini ta'minlaydi.
- har bir bolaga maxsus moslashtirilgan, mashq qilishga asoslangan topshiriqlardan iborat bo'lgan rivojlanishning individual dasturlari u bilan ishlashning asosiy yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Metodikaning asosiy maqsadi: rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalarda quyidagi sohalar bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish.

- imitatsiya
- idrok
- yirik motorika
- mayda motorika

- qo'llar va ko'z koordinatsiyasi
- elementar bilish faoliyati
- nutq
- o'z-o'ziga xizmat qilish
- ijtimoiy munosabatlar

Umuman olganda, mazkur metodika orqali bolaning individual rivojlanishiga erishiladi.

ABA (xulq-atvorni modifikatsiyalash metodikasi). Doktor Ivar Lovaas va uning Kaliforniya universitetidagi shogirdlari 1963-yildan boshlab bolalar bilan xulq-atvorga asoslangan metodikalarni qo'llaydilar. Mazkur usulning vazifasi bolada o'qish istagini uyg'otish va unda ta'lim olish imkoniyatiga ega ekanlik tushunchasini shakllantirishga yordam berishdan iborat. "Stimul - reaksiya - natija" klassik modeli bolada u yoki bu ko'nikmani o'zaro bog'liq bo'lgan kichik-kichik bosqichlarga bo'lib shakllantirishni belgilaydi. Ushbu bosqichlarning har biri bola tomonidan to'liq o'zlashtirib olingach, keyingi bosqichga o'tiladi. Chet mamlakatlarda ABA metodikasi bo'yicha mashg'ulotlar turlicha yo'nalishdagi bir necha mutaxassislar: xulq-atvor ko'nikmalarini korreksiyalash malakasiga ega bo'lgan defektolog, musiqaterapevt, art-terapevt va boshqa shu kabi mutaxassislar hamda ularni nazorat qiluvchi supervizor tomonidan amalga oshiriladi.

Son-Rise metodikasi. Son-Rise metodikasi tamoyillari (ko'pincha uni "Son-Rise dasturi" deb ham ataydilar). Autizmga ega bo'lgan bolalarga yordam berishga mo'ljallangan Son-Rise dasturi er-xotin Barri va Samariya Kaufman tomonidan 30 yil ilgari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning farzandlaridan biri autizm kasalligiga ega edi. Qo'rqqoq va ko'p cho'chiydigan bolalar uchun aynan bu metodika kattalarning asta-sekin va ehtiyotlik bilan aralashuvi hisobiga pedagog bilan munosabat o'rnatishga yordam beradi. Chunki muloqot o'rnatish qobiliyati har qanday ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi. Son-Rise metodikasi bo'yicha hurmat va chuqur g'amxo'rlik bolada ta'lim olishga nisbatan motivatsiyaning uyg'onishiga ta'sir qiluvchi muhim omillardandir. Shuning uchun ta'limning dastlabki bosqichlaridan pedagog tomonidan bolaga nisbatan muhabbat namoyon etilishi va uni boricha qabul qilish har qanday ta'limiy mashg'ulotning muhim qismidir. Bu metodikaning kuchli tomonlari bolaning shaxsiy motivatsiyasidan foydalanish ta'lim samaradorligini kuchaytiradi, ijtimoiy yo'naltiradi. Bir vaqtning o'zida yaqin kishilardan birining va pedagogning bolaga butunlay o'zini bag'ishlashini talab qiladi, chunki bolani hatto bir soniyaga ham kattalarning nazoratidan chetda qoldirish mumkin emas, aksincha, muntazam ravishda faoliyatga jalb etib borilishi lozim.

Sensor integratsiya va rag'batlantirish (SIR) metodikasi (predmetli terapiya). Sensor integratsiya va rag'batlantirish metodikasi Kaliforniya universitetining mehnat terapiyasi bo'yicha mutaxassisi Jean Ayres tomonidan ishlab chiqilgan. U nevrologik buzilishlari mavjud bo'lgan bola va katta yoshdagilar bilan ishlagan. Rossiyada mazkur metodika "predmetoterapiya" nomini olgan. Mazkur metodika asosidagi rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar bir kunda 2–3 marotaba o'tkaziladi, uning mazmuni 3–4 oyda bir marotaba qayta ko'rib chiqiladi. Mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilib, yangi turlari kiritib boriladi, muayyan muvaffaqiyatlarga erishilganda esa kognitiv trening elementlaridan qo'shiladi. Mazkur metodika Daun, nutqiy rivojlanishda orqada qolgan (NROQ), bolalar serebral falaji (BSF), autizm sindromiga ega bo'lgan bolalar bilan korreksion maqsadlarda qo'llanilganda samarali natijaga erishiladi. Autizmga ega bo'lgan bolalar o'ta ta'sirchan yoki e'tiborsiz bo'lib, shuningdek, o'z tuyg'ularini integratsiya qila olmaydi. Metodika tarafdorlarining fikricha, bola sekin-asta sensor ta'sirlarni interpretatsiya qilishga va har gal yangi bosqichlarga moslashishga o'rganib boradi. Faqatgina shu metodika eng og'ir va ko'pgina psixik muammolarga ega bo'lgan bolalar hamda aqliy rivojlanishdan orqada qolishning og'ir shakllariga chalingan, shuningdek, bosh miyadan og'ir jarohatlangan bolalar bilan korreksion ishlarning dastlabki bosqichlarida qulaydir. Sensor integratsiya metodikasini faqatgina mehnat terapevtlari qo'llaydi. Shuning uchun ota-onalar mazkur metodikadan maxsus ta'lim olganlaridan so'ng hamda metodikani ishlatish bo'yicha mutaxassisning nazorati ostidagina uni farzandlariga nisbatan qo'llashlariga ruxsat berilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Autizm sindromining o'rganilish tarixi va zamonaviy metodikalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu buzilish haqidagi ilmiy qarashlar yillar davomida sezilarli darajada takomillashib borgan. Dastlab autizm psixik kasalliklarning bir ko'rinishi sifatida talqin qilingan bo'lsa, bugungi kunda u neyrorivojlanish buzilishi sifatida e'tirof etilmoqda. Ilmiy manbalar tahlili natijasida autizmning kelib chiqishida genetik, nevrologik va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Adabiyotlar tahlili Leo Kanner, Hans Asperger va zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari autizm sindromining mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qilganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, autizm spektr buzilishi



tushunchasining joriy etilishi turli darajadagi rivojlanish xususiyatlarini yagona tizim asosida baholash imkonini yaratdi. DSM-5 va ICD-11 xalqaro tasniflarining amaliyotga joriy etilishi diagnostika jarayonining aniqligini oshirishga yordam berdi.

Zamonaviy korreksion-pedagogik metodikalar tahlili TEACCH, ABA, Son-Rise hamda Sensor integratsiya va rag'batlantirish (SIR) metodikalarining autizmlil bolalar bilan ishlashda keng qo'llanilayotgan samarali yondashuvlar ekanligini ko'rsatdi. TEACCH metodikasi bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qilsa, ABA terapiyasi xulq-atvor va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi bilan ajralib turadi. Son-Rise metodikasi esa bolaning motivatsiyasi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tahlillar natijasida autizmlil bolalarda nutqiy va ijtimoiy muloqotni rivojlantirishda birgina metoddan foydalanish yetarli emasligi, aksincha, bir nechta metodlarni uyg'unlashtirgan kompleks yondashuv samaraliroq natija berishi aniqlandi. Shuningdek, logopedik mashg'ulotlar, ota-onalar bilan hamkorlik, individual ta'lim dasturlari va inkluziv ta'lim muhitini yaratish korreksion ishlarning samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida baholandi.

O'rganilgan ilmiy manbalar va metodikalar tahlili autizm sindromiga ega bo'lgan bolalarni erta aniqlash va ularga o'z vaqtida pedagogik yordam ko'rsatish ularning ijtimoiy moslashuvi hamda ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Shu bois autizmlil bolalar bilan ishlashda zamonaviy metodikalardan kompleks foydalanish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, autizm sindromi bugungi kunda dolzarb pedagogik va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyot davomida autizmga nisbatan ilmiy qarashlar sezilarli darajada o'zgardi. Zamonaviy yondashuvlar autizmlil bolalarning imkoniyatlarini rivojlantirish, ularni jamiyatga moslashtirish va mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan. Ilmiy tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, autizmlil bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirishda kompleks korreksion-pedagogik yondashuv eng samarali usul hisoblanadi. Amalda qo'llanilayotgan yangi pedagogik yondashuvlarda autizmlil bolalarni jamiyatga integratsiyalash asosiy maqsad sifatida qaralmoqda. Inkluziv ta'lim teng imkoniyat yaratadi, ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi, kommunikativ rivojlanishga yordam beradi. Pedagoglarning maxsus tayyorgarligi va tolerant muhit yaratish inkluziv ta'lim samaradorligini oshiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, autizmlil bolalarda korreksion-pedagogik ishlarni erta boshlash yuqori samaradorlik beradi.

Ayniqsa, ABA terapiya, TEACCH tizimi, Sensor integratsiya va rag'batlantirish (SIR) metodikasi, Son-Rise metodikasi va logopedik mashg'ulotlarning uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi nutqiy muloqotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik, individual ta'lim dasturlari, innovatsion texnologiyalar, inkluziv muhit yaratish autizmlil bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kelgusida innovatsion texnologiyalar va individual metodikalarni yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, dunyoda autizm sindromiga chalingan bolalarni tuzatishning bir qancha usullari amaliyotga tatbiq etilib, samarali natijalarga erishilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kanner L. Autistic Disturbances of Affective Contact. New York, 1943.
2. Asperger H. Autistic Psychopathy in Childhood. Vienna, 1944.
3. Bleuler E. Dementia Praecox or the Group of Schizophrenias. New York, 1911.
4. Wing L. The Autistic Spectrum. London, 1996. Frith U. Autism: Explaining the Enigma. - Oxford, 2003.
5. Lovaas O. Teaching Individuals with Developmental Delays. - Texas, 1981.
6. Mesibov G. TEACCH Approach to Autism Spectrum Disorders. - New York, 2007.
7. Shomaxmudova R. Maxsus pedagogika asoslari. - Toshkent, 2010.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining inkluziv ta'limga oid qarorlari.
9. DSM-5. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders. - APA, 2013.
10. ICD-11 International Classification of Diseases. - WHO, 2022.
11. Rogers S., Dawson G. Early Start Denver Model for Young Children with Autism. - New York, 2010.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.